

G'AFUR G'ULOM VA HUQUQ



Xamroyeva Komila
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur o'zbek adabiyotining yorqin vakili, akademik shoir va yozuvchi Mirzaorif o'g'li G'afur G'ulomning ijodida huquq va axloq masalalari tahlil qilingan. Yozuvchining asarlaridagi huquqiy qarashlari, asarlarining hayotimizdagi ahamiyati, ayni o'sha davr bilan hozirgi davr o'rtaсидаги siyosiy qarashlar solishtirilgan va yetarli darajada tahlil qilingan holda huquqiy qarashlar bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda, G'afur G'ulom asarlaridagi ilgari surilgan g'oyalarning bugungi kunda jamiyat hayotidagi ahamiyati to'grisida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: G'afur G'ulom, Shum bola, Qoravoy, Jinoyat kodeksi, huquq, axloq

O'zbek adibi va yozuvchisi G'afur G'ulomning barcha asarlari adabiyotshunoslar nuqtai nazaridan keng targ'ib qilingan. Shuningdek, targ'ib qilish davomida, har bir asarning yoshlar hayotidagi o'rni, asar kitobxonga nima bera olishi, qaysi jihatini yuksaltirib, nimaga da'vat etmasligini izlanib chiqishgan. Vaholanki, adibimizning barcha asarlarida yana bir jihat mavjud, biz hozir shuni siz bilan bo'lishmoqchimiz. Biz ushbu jihatni adibimizning asarlarini o'qish davomida "G'afur G'ulom va huquq" deb nomladik. Sababi, biz adibimizning asarlarida yozuvchining huquqiy qarashlari, jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatiga qo'shgan hissasini bilib oldik. Buning uchun biz "Shum bola" asarini huquqshunos nigohi ostida talqin qilmoqchimiz. "Shum bola" asari 1936-yilda yozilgan bo'lib, qissada XX asr boshidagi Toshkent hayoti tasvirlangan. Shum bola qissasi –bu G'afur G'ulomning o'z bolaligi haqidagi hikoya: uning chang ko'chalarda daydigani, ochiq osmon ostida tong ottirgani, ochko'zlik bilan har ishga yopishgani... Ammo, muallifning cheksiz hayolot dunyosi va qadim milliy xususiyatlarga xos qiziq-quvnoq uydirmalari orqali "Shum bola" butun dunyoga taniladi. Asarda Sho'ro hokimiyati ostida qolgan davlatlarning og'ir hayoti, ishsizlik, qashshoqlik, yetimlar ahvoli va ularning majburiy ishga jalb qilinishi o'ziga xos usullarda keng yoritib o'tilgan. Asardagi Qoravoyning onasi timsolida biz yolg'iz onaning achinarli hayoti, bolalar tarbiyasi uchun faqat o'zining harakatda bo'lishi, millatning esa yolg'iz ona bo'lsada, unga yordam qo'lini cho'zmasligini ko'rishimiz mumkin. Buning eng asosiy sabablaridan biri shundaki, ushbu davrda huquq tizimizning yo'qligi yoki aksincha mavjud bo'lsada, to'g'ri va samarali qo'llay olinmaslidadir. Qarovsiz va yetim qolgan bosh qahramon obrazi orqali voyaga

yetmagan shaxslarga nisbatan boy va salbiy xarakterga ega shaxslar tomonidan majburiy ishlarning qildirilishi, ishga nisbatan haqning to'lanmasligi, kaltaklanishi ularni yomon yo'llarga undash hollarini ko'rib, biz "Bola huquqlarining" poymol etilganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, ayni bir qonunchiligidan orqali ushbu holatlarga yechim beradigan bo'lsak, Jinoyat kodeksi bunday harakatlarni ta'qilagan holatda, javobgarlik masalasiga alohida to'xtalib o'tgan. Asarda, Shum bola "Aybdor bo'lmasdan turib, shubha ostida qolishlik eng yomoni" degan iborani ishlatadi. Bundan ko'rinish turibdiki, Shum bolaning Xoji bobo xizmatida bo'lgan paytida og'ir kunlarni ko'rishi, xaromi deb haqoratlanishi, kaltak ostida qolishi va ayni bir damda hech bir sababsiz o'g'ri degan nom ostida qolishi uning huquqlarini yanada buzilishiga olib kelgan. Shum bola Sariboy xizmatida bo'lgan davrda "Uning uyida bir oy-u 19 kun ishlaganman, haligacha bergen 22 tiyin choychaqasini bosib qolib, qayoqdagi sasigan, qurt tushgan 2 pud olmalarini 1 ta chipta qopga solib berdi" deydi, Xoji xizmatida esa "Salkam 4 oy xizmatingizni qilib, topganim 1 ta oporka bilan eski qalpoq bo'ldi. Buning ustiga yetim deb, siylab o'tirmay ikkovlashib toza savaladingiz... Haq bermadingiz. Bu qaysi shariatga kiradi-yu, qaysi zakonda bor", degan fikrlarni bildiradi. Voyaga yetmaganlarning og'ir mehnatga jalb qilinishi, kaltaklanishi, "Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari" himoyalanmaganligini ko'rsatadi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yolg'iz boquvchisi bor oilalarga, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan katta e'tibor qaratilmoqda. Ularning huquqlari davlat siyosatida doimo birinchi o'rinni egallaydi. Sababi, yoshlar-kelajak bunyodkorlaridir, ularga qancha e'tibor qaratilsa, o'qish va bilimda o'zini ko'rsata olishi, Vatanga ulkan yutuqlar keltirishi mumkin. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, "Uchinchi Renessansning poydevori aynan yoshlar bo'lishi" ham bejizga emas. Shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan, ularning bilim olishlariga, kamsitilishiga, majburiy ish mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslikka, ularni moliyaviy tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshirilmoqda. Fikrlarimizning yorqin dalili sifatida qonuniy hujjalarni orqali misollar keltirib o'tadigan bo'lsak, "Voyaga yetmaganlarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha talablar to'g'risida" gi nizom, yolg'iz onalarga nisbatan "Temir daftar" ning yo'lga qo'yilishi fikrimizning yorqin dalilidir. Umuman biz huquqshunoslar, adibimizning barcha asarlarini o'qib, asar qa'ridagi ulkan bir ma'noni to'g'ri anglagan holda huquqshunos nigohi ostida, bugun bilan bog'lab, asardagi siyosatdagi kamchilikni o'zimizda qaytarilmaslik choralarini ko'rishimiz lozim. Xulosa qilib biz shuni aytalishimiz mumkinki, G'afur G'ulom "Shum bola" asarida mana shunday nursiz, qabohat va jaholatga botgan muhitni achchiq kulguga olgan holda, yosh bola Qoravoy nigohi ostida tasvirlaydi. Qoravoyning qilgan shumliklari, Sariboya aytgan yolg'onlari, go'sht qopini ichiga tushib olib, Omonni ko'tartirib yurishiga olib kelgan ishlari, sarguzashtlarini ko'rib, yuzingizda tabassum yuguradi, ammo Qoravoya nisbatan qilingan xo'rliklar,

“Xaromi” deb haqoratlanishlari, mehnatiga yarasha munosabatda bo’linmaganligi, yolg’iz onaning qiyinchiliklarini ko’rib, ichingizdan qandaydir boshqacha hissiyot o’tadi. Bilasizmi, yana eng ajablanarli tomoni nimada, ushbu asarni qayta-qayta o’qisangiz ham, kinosi ko’rsangiz ham, ichidagi mazmun har o’qiganingiz sari yanada aniqroq kasb etib, o’sha hissiyotlarni yana qayta uyg’otadi. Biroq, shunisi muhimki, G’afur G’ulom mana shu nursiz, qabohat va jaholatga to‘la muhitni yosh bola nigohi orqali rang-barang mazmunga to‘la holda tasvirlaydi. Qissani o’qir ekansiz, undagi hodisalarning qiziqligi, qahramonlar xarakteridagi yorqin jihatlar sizni butunlay o’ziga rom qilib oladi. Mana shuning uchun ham G’afur G’ulom ijodi serqirra deb nomlansa kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Shum bola
2. Jinoyat kodeksi